

# ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

3-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ  
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-3

JOURNAL OF LAW RESEARCH  
SPECIAL ISSUE-3



# ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF LAW RESEARCH

№SI-3 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9130-2023-SI-3>

Бош муҳаррир:  
Главный редактор:  
Chief Editor:

**Abdurasulova Qumriniso Raimqulovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Бош муҳаррир ўринбосари:  
Заместитель главного редактора:  
Deputy Chief Editor:

**Fayziev Shoxrud Farmonovich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

12.00.01 - ДАВЛАТ ВА ҲУҚУҚ НАЗАРИЯСИ ВА ТАРИХИ. ҲУҚУҚИЙ ТАЪЛИМОТЛАР ТАРИХИ / ТЕОРИЯ ПРАВА И ГОСУДАРСТВА, ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ / THEORY OF LAW AND STATE, HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

**Boboyev Halimboy Boboyevich**

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Ahmedshaeva Mavlyuda Axatovna**

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna**

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Adilxodjayeva Surayyo Maxkamovna**

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Sattorov Abdug'affor**

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Artur Gambaryan**

yuridik fanlar doktori, professor (Armaniston)

**Yosuke Shamoto**

yuridik fanlar doktori, professor (Yaponiya)

12.00.02 - КОНСТИТУЦИОННЫЙ ҲУҚУҚ, МАЪМУРИЙ ҲУҚУҚ, МОЛИЯ ВА БОЖХОНА ҲУҚУҚИ / КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО; АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО; ФИНАНСОВОЕ ПРАВО / CONSTITUTIONAL LAW; ADMINISTRATIVE LAW; FINANCIAL RIGHT

**Malikova Gulchexra**

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Xusanov Ozod Tillabayevich**

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Selimanova Svetlana Mixaylovna**

yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)

**Xvan Leonid Borisovich**

yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

**Peshkova Xristina Vyacheslavovna**

yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)

**Sung Un Lee**

yuridik fanlar doktori, professor (Janubiy Koreya)

12.00.03 - ФУҚАРОЛИК ҲУҚУҚИ. ТАДБИРКОРЛИК ҲУҚУҚИ. ОИЛА ҲУҚУҚИ. ХАЛҚАРО ХУСУСИЙ ҲУҚУҚ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО; ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО; СЕМЕЙНОЕ ПРАВО; МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО / CIVIL LAW; BUSINESS LAW; FAMILY LAW; PRIVATE INTERNATIONAL LAW

**Oqyulov Omonboy**

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Ro'zinazarov Shuhrat Nuraliyevich**

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Ruziyev Rustam Jabborovich**

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Borotov Mirodiljon Xomudjonovich**

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Toshev Boboqul Norqobilovich**

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Shomuxamedova Zamira Shoislamovna**

yuridik fanlar doktori, (O'zbekiston)

**Ahmad Issa Altweissi**

yuridik fanlar doktori, professor (Iordaniya)

12.00.04 - ФУҚАРОЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ХЎЖАЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ҲАҚАМЛИК ЖАРАЁНИ ВА МЕДИАЦИЯ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; ХОЗЯЙСТВЕННОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; АРБИТРАЖНЫЙ ПРОЦЕСС И МЕДИАЦИЯ / CIVIL PROCEDURE LAW; ECONOMIC PROCEDURAL LAW; ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

**Esanova Zamira Normurodovna**

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Mamasidiqov Muzaffar Musajonovich**

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Egamberdiyev Eminjon**

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Jason A.**

Kanton Federal sud markazi (AQSH)

12.00.05 - МЕҲНАТ ҲУҚУҚИ. ИЖТИМОИЙ ТАЪМИНОТ ҲУҚУҚИ / ТРУДОВОЕ ПРАВО; ПРАВО СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ / THE LABOR LAW; SOCIAL SECURITY LAW

**Usmanova Muborak Akmalxanovna**

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Gasanov Mixail Yuriyevich**

yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

**Sattorova Gulnoza Djurakulovna**

yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

**Murodova Gulnora**

yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

**Denisov Gleb**

yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

**Fayziyev Shuxrat Xasanovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Usmonov Muhammadi Bahridinovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Xolmuminov Juma**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Jo'rayev Yuldash Achilovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Skripnikov Nikolay Kuzmich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

**Po'latov Baxtiyor Xalilovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Salomov Baxrom Salomovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Salayev Nodirbek Saparbayevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Osmonaliev Qayrat**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Aleksey Kibalnik**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)  
**Kudryavtsev Vladislav Leonidovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)  
**Sergey Shoshin**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)  
**James B.**  
Eaglin Federal sud markazi (AQSH)

**Rustambayev Mirzayusup Hakimovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Zufarov Rustam Axmedovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Kabulov Rustam**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Rajabova Mavjuda Abdullayevna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Taxirov Farxod**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Ismailov Isomiddin**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Hamidov Nurmuhammad Orif o'g'li**  
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)  
**Yuldoshev Rifat Raxmadjonovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)  
**Djansarayeva Rima Ernatovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)  
**Yelena Antonyan Aleksandrovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)  
**Matthew Light**  
yuridik fanlar doktori, professor (Kanada)


**Inog'omjonova Zumratxon Fatxullayevna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Pulatov Yuriy Safiyevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**To'laganova Gulchehra Zaxitovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Muxiddinov Faxriddin Muxiddinovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Mirzov Davron Miragzamovich**  
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)  
**Rijakov Aleksandr Petrovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

**Stoyko Nikolay Genadyevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)  
**Iskandarov Zayniddin**  
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)  
**Sergey Pen**  
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)  
**Aleksey Purs**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (Belarus)  
**Jurgen Maurer**  
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)  
**Kevin Curtin**  
yuridik fanlar doktori, professor (AQSH)

**Ismoilov Bahodir Islamovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Matkarimova Gulchehra Abdusamatovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Yuldasheva Govxerjan**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Alexander Trunk**  
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)


<b>1. Мухамедов Ҳайдарали Мелиевич</b> АНТИК ДУНЁ МАМЛАКАТЛАРИ ҲУҚУҚИ.....	5
<b>2. Turgunov Murodjon Tursunbayevich</b> ЎРТА АСРЛАРДАГИ МУСУЛМОН ВА ҒАРБ ФАЛСАФАСИНИНГ РИВОЖЛАНИШИГА ФОРОБИЙ ҒОЯЛАРИНИНГ ТАЪСИРИ.....	16
<b>3. Ибрагимова Мухлиса Паридуновна</b> ДАВЛАТ ФУҚАРОЛИК ХИЗМАТЧИЛАРИНИНГ ҲУҚУҚИЙ МАҚОМИДА ЖАВОБГАРЛИК ВА ҲУҚУҚЛАРИНИНГ ҲИМОЯ ҚИЛИНИШИ МАСАЛАЛАРИНИНГ НАЗАРИЙ ҲУҚУҚИЙ ТАҲЛИЛИ.....	23
<b>4. Ubaydullayev Abror Qutilla o‘g‘li</b> ISLOM MOLIVASINI HUQUQIY VA TASHKILY JIHATDAN TARTIBGA SOLUVCHI XALQARO INSTITUTLARINING SHAKLLANISH TARIXI VA EVOLUTSIYASI.....	29
<b>5. Yuldoshbekov Avazbek Alisher o‘g‘li</b> SOLIQ MASALAHATINI AMALGA OSHIRISH PRINSIPLARI VA ULARNING TURLARI.....	35
<b>6. Ашурова Наргиза Аъзамовна</b> ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАР ТАЖРИБАСИДА ТАДБИРКОРЛИК СУБЪЕКТЛАРИ МУЛКИЙ АСОСЛАРИНИНГ ҲУҚУҚИЙ РЕЖИМИ ТАВСИФИ.....	43
<b>7. Амангельды Айжан Амангельдыкызы</b> ПРАВОПРЕЕМСТВО ПРАВ В СФЕРЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ СОБСТВЕННОСТИ.....	54
<b>8. Чориева Хуршидабону Хуррам кизи</b> ВАСИЙЛИК ВА ҲОМИЙЛИК БЎЙИЧА ФАОЛИЯТНИ ТАШКИЛ ЭТИШ.....	74
<b>9. Эшимбетова Дармон Уразбаевна</b> КОРПОРАТИВ НИЗОЛАРНИ СУДДА ҲАЛ ҚИЛИШНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ: МУАММО ВА ЕЧИМ.....	82
<b>10. Казакбаев Туулбай Каримбаевич</b> КОРПОРАТИВ ШАРТНОМА ШАКЛИ ВА УНИ ТУЗИШ ШАРТЛАРИ.....	90
<b>11. Rasulov Bekzod Boymuratovich</b> QURILISHNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH – BARQAROR RIVOJLANISH MEZONI.....	98
<b>12. Умарова Барно Акбутаевна</b> ОТА-ОНАЛИК ҲУҚУҚИДАН МАХРУМ ҚИЛИШНИНГ АЙРИМ НАЗАРИЙ ВА АМАЛИЙ ЖИҲАТЛАРИ.....	107



**Yuldoshbekov Avazbek Alisher o'g'li,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
mustaqil izlanuvchisi  
E-mail: a.yuldoshbekov@tsul.uz

## SOLIQ MASALAHATINI AMALGA OSHIRISH PRINSIPLARI VA ULARNING TURLARI

**For citation:** Yuldoshbekov Avazbek Alisher ugli. PRINCIPLES OF TAX CONSULTING AND THEIR TYPES. Journal of Law Research. 2023, Special issue 3, pp.35-42

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.10505564>

### ANNOTATSIYA

Hozirgi vaqtda, soliqlarni to'lash va soliq organlariga ijobiy munosabatni shakllantirishga, qonunga itoatkor soliq to'lovchini tarbiyalashga, mas'ul soliq to'lovchilarning obro'si va soliq qonunchiligini muntazam ravishda buzuvchi shaxslarga nisbatan jamoatchilik fikrini shakllantirishga qaratilgan kompleks davlat siyosatini amalga oshirish alohida o'rin egallamoqda. Soliqqa oid targ'ibotlar yordamida davlat soliq majburiyatlarini bajarmaslikka toqat qilmaydigan jamoatchilik fikrini shakllantirish uchun soliq to'lovchining fuqarolik ongi rivojlanishiga, uning fuqarolik va soliq bilimi darajasiga ta'sir qilish mexanizmini ishlab chiqish muhim ahamiyatga egadir. Shu bilan birga, soliq va budget munosabatlari shaffof bo'lishi, ya'ni soliq to'lovchilar o'z soliqlarini qay maqsadda sarflanayotganini haqiqatan ham ko'ra bilishi kerak. Mazkur maqolada "soliq maslahati" instituti prinsiplarining milliy qonunchiligimizda izohlanishi va ushbu prinsiplarga nisbatan olimlarning munosabatlari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** soliq qonunchiligi, soliq maslahati, soliq maslahatchisi, soliq maslahati prinsiplari, soliq munosabatlari, rag'batlantirish, samaradorlik, mexanizm.

**Юлдашбеков Авазбек Алишер угли,**  
Самостоятельный соискатель Ташкентского  
Государственного юридического университета  
E-mail: a.yuldoshbekov@tsul.uz

## ПРИНЦИПЫ ОСУЩЕСТВЛЕНИЯ НАЛОГОВОГО КОНСУЛЬТИРОВАНИЯ И ИХ ВИДЫ

### АННОТАЦИЯ

В настоящее время реализуется комплексная государственная политика, направленная на формирование положительного отношения к плательщикам налогов и налоговым органам, воспитание законопослушного налогоплательщика, формирование репутации ответственных налогоплательщиков и общественного мнения в отношении лиц, регулярно нарушающих налоговое законодательство, занимает особое место. Важно разработать механизм

воздействия на развитие гражданственности налогоплательщика и уровень его гражданских и налоговых знаний с целью формирования с помощью налоговой пропаганды общественного мнения, не терпящего невыполнения государственных налоговых обязательств. . При этом налогово-бюджетные отношения должны быть прозрачными, то есть налогоплательщики должны иметь возможность видеть, на какие цели расходуются их налоги. В данной статье анализируется трактовка принципов института «налоговое консультирование» в нашем национальном законодательстве и отношение ученых к этим принципам.

**Ключевые слова:** налоговое законодательство, налоговое консультирование, налоговый консультант, принципы решения налоговых вопросов, налоговые отношения, стимулы, эффективность, механизм.

**Yuldoshbekov Avazbek Alisher ugli,**

PhD researcher of Tashkent State University of Law

E-mail: a.yuldoshbekov@tsul.uz

## PRINCIPLES OF TAX CONSULTING AND THEIR TYPES

### ANNOTATION

Currently, a comprehensive state policy is being implemented aimed at creating a positive attitude towards tax payers and tax authorities, raising a law-abiding taxpayer, building a reputation for responsible taxpayers and public opinion in relation to persons who regularly violate tax laws, occupies a special place. It is important to develop a mechanism for influencing the development of the taxpayer's citizenship and the level of his civic and tax knowledge in order to form, through tax propaganda, a public opinion that does not tolerate failure to fulfill state tax obligations. . At the same time, fiscal relations must be transparent, that is, taxpayers must be able to see for what purposes their taxes are spent. This article analyzes the interpretation of the principles of the institute of "tax consulting" in our national legislation and the attitude of scientists to these principles.

**Keywords:** tax legislation, tax consulting, tax consultant, principles for resolving tax issues, tax relations, incentives, efficiency, mechanism.

Inqirozdan keyingi davrda iqtisodiy o'sish yo'lidagi davlatning ma'muriy to'siqlarni bartaraf etish va budjet tizimi daromadlari barqarorligini ta'minlashda soliq majburiyatlarini bajarish tartib-taomillarini soddalashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Murakkab soliq tizimi va soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun jiddiy ma'muriy, moliyaviy va jinoiy jazo choralari qo'llanilishi fonida soliq masalalari bo'yicha ko'plab munozarali arbitraj ishlari biznes yuritishning soliq risklarini minimallashtirishga qaratilgan xizmatlarga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltiradi. Soliq nizolari bo'yicha soliq to'lovchilarning manfaatlarini himoya qilish zarurati ularni hal qilish tartib-qoidalarida qarama-qarshi tendensiyalarning rivojlanishini belgilaydi: soliq to'lovchilar maslahatlar berish va ularning manfaatlarini ifodalash uchun vakolatli mustaqil mutaxassislar ya'ni, soliq maslahatchilarini jalb qiladi.

Xususan, soliq maslahatchisi – qonunchilikka muvofiq, o'zining asosiy faoliyati sifatida o'z mijozlariga soliq bo'yicha maslahatlarning to'liq spektrini amalga oshirish huquqiga ega bo'lgan jismoniy yoki yuridik shaxs bo'lib hisoblanadi. Jumladan, soliq masalalari bo'yicha maslahatlar berish (soliqni rejalashtirish, soliq deklaratsiyasini topshirish va boshqa majburiyatlarni bajarish, soliq organlarida mijozlariga vakillik qilish (masalan, soliq tekshiruvi yoki apellyatsiya tartibida) kiradi, lekin, faqat ushbu xizmatlar bilan cheklanib qolmasdan ba'zi mamlakatlarda sudlar yoki tribunallarda yuridik vakillikni ham amalga oshiradi[1].

Fikrimizcha, soliq maslahati – bu maslahat oluvchi shaxsga soliq to'lovchilar, soliq agentlari va boshqa shaxslar tomonidan soliqlar va yig'img'irlar to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan majburiyatlarni lozim darajada bajarishga yordam beradigan xizmatlarni pullik asosda ko'rsatish bo'yicha professional faoliyat turidir.

Jumladan, soliq maslahatchisining faoliyati quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishi mumkin:

– soliqlar, yig‘imlar va boshqa majburiy to‘lovlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini qo‘llash bo‘yicha maslahatlar berish;

– yuridik va jismoniy shaxslar uchun soliq hisobotlarini tayyorlash;

– soliq hisobini yuritish tartibi;

– soliq nazorati faoliyati davomida soliq maslahati[2].

Shuningdek, neoinstitutsional yondashuv doirasida soliq maslahat instituti quyidagicha taqdim etilishi mumkin:

- soliq sohasidagi munosabatlar ishtirokchilari o‘zaro munosabatlarining shartlarini va soliq sohasidagi harakatlarning funksional rollari, imkoniyatlari va cheklovlarini aniq belgilash orqali aniq munosabatlarni tartibga solish va ularning bashorat qilinishini oshirish uchun mo‘ljallangan qoidalarining majmuyi sifatida;

- soliq majburiyatlarini shakllantirish va bajarish jarayonida muvozanatga erishish bilan ta‘minlangan soliq munosabatlari ishtirokchilarining manfaatlarini shartnoma asosida muvofiqlashtirish usuli sifatida [3, B.113-120].

Bundan tashqari, soliq munosabatlari madaniyatini jadal rivojlantirish jarayonida quyidagi yo‘nalishlarda soliq maslahati rivojlanishi qayd etilmoqda [4,B.12]:

- mustaqil mutaxassis sifatida faoliyat yuritadigan soliq maslahatchilari, auditorlar, yuristlar, advokatlar, mediatorlar, hakamlik boshqaruvchilari va moliyaviy vositachilarning kasbiy faoliyati. Shu bilan birga, qolgan mutaxassislar soliq masalalari bo‘yicha tegishli xizmatlar shaklida maslahat berishganda soliq maslahatchilari soliq maslahatlarining ixtisoslashgan funksiyalarini bajaradilar;

- davlat organlari tomonidan soliq qonunchiligi qoidalarini aniqlashtirish bo‘yicha davlat funksiyalarini amalga oshirish. Bu tushuntirish ishlarini olib borish, soliq to‘lovchilarning muayyan holatlar yuzasidan so‘rovlari bo‘yicha maslahatlar berish va soliq nizolarini sudgacha hal qilish uchun soliq tekshiruvini o‘tkazishni o‘z ichiga oladi;

- yirik va eng katta soliq to‘lovchilar tarkibidagi mutaxassislar va ixtisoslashtirilgan bo‘linmalarining sho‘ba korxonalari va jug‘rofiy jihatdan alohida bo‘linmalarga ichki nazorat, soliq hisobini yuritish va transfert narxlaridan foydalanish ko‘rinishida maslahatlar berish faoliyati.

Shuningdek, tashkilotda soliqqa tortish masalalari sohasidagi yangiliklarni baholash va uning soliq sohasidagi innovatsion rivojlanishi, shuningdek umumiy masalalar bo‘yicha maslahatlashuvlar bo‘yicha soliq maslahatchisi rioya etadigan kasbiy etika prinsiplarini quyidagi ikki turga bo‘lish mumkin: ruxsat beruvchi va taqiqlovchi normalar.

Soliq maslahatchisi uchun kasbiy etikaning ruxsat beruvchi normalariga quyidagilar kiradi:

1) vakolatlar - tuzilgan shartnomada belgilangan vakolatlarga muvofiq professional maslahatlar berish; 2) davlat qonunchiligi - mijozning manfaatlarini himoya qilishda muayyan davlat qonunchiligiga rioya qilish; 3) ekvivalentlik – mijoz va davlat budjeti manfaatlarining ekvivalentligiga rioya qilish; 4) oshkoralik - vakolatlar, malaka va hurmat darajasining shaffofligi.

Soliq maslahatchisi uchun kasbiy etikaning taqiqlovchi normalariga quyidagilar kiradi: 1) manfaatlar to‘qnashuvi - agar manfaatlar to‘qnashuvi mavjud bo‘lsa, maslahatlashuvlar o‘tkaza olmaslik (shartnomada alohida band ko‘rsatilgan bo‘lmasa); 2) mijozga taqdim etilgan ma‘lumotlarni buzib ko‘rsatish yoki yashirish - korxonada soliqqa tortish va uning soliq sohasidagi innovatsion rivojlanishi sohasidagi xizmatlarning professional taqdim etilishi to‘g‘risida ma‘lumotlarning buzilmasligi yoki yashirilmasligi; 3) yolg‘on ma‘lumotlar - korxonani soliq va yig‘imlarni to‘lashdan bo‘yin tovlashi uchun yolg‘on ma‘lumotlarni taqdim etmaslik; 4) soliq organlarini chalg‘itmaslik – soliq organlarini aldash uchun maslahat bermaslik.

Soliq maslahati tushunchasi soliq sohasida xizmatlarni amalga oshirishda harakatlar strategiyasini belgilaydigan prinsiplarni muvofiqlashtirish bo‘lib, maqsad va vazifalar to‘plamidan iborat.

Tadqiqotchi olim F.A.Gudkovning fikrlaridan kelib chiqadigan bo‘lsak, soliq maslahati tushunchasining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

Birinchi, qonuniylik prinsipi. Soliq maslahati soliq, fuqarolik va mehnat munosabatlari hamda moliya sohasidagi qonun hujjatlariga asoslanadi. Qonuniylik prinsipi soliq maslahatchisi tashkilot rahbarlari va mutaxassislariga muammoning mohiyati va uni hal qilish yo‘llari to‘g‘risida

yangi nuqtayi nazarni ishlab chiqishda qonun hujjatlarini hisobga olgan holda yordam berishi kerakligini anglatadi. Ya'ni soliq maslahatchisi qonunchilikni buzishga turtki bo'lmasligi lozim[5,B.12-14].

Xizmat ko'rsatilayotgan tashkilotda innovatsiyalarni amalga oshirish va boshqarish masalalarini muhokama qilishdagi soliq maslahatining asosiy prinsiplaridan biri bo'lgan soliq maslahatidagi maxfiylik prinsipi kasbiy etika masalalari bilan chambarchas bog'liqdir.

Xususan, tadqiqotchi olim N.V.Timoshkova maxfiylik kabi soliq maslahati prinsipining parametrlariga quyidagilarni kiritadi:

1) ma'lumotlar siri - soliq maslahatchisi tomonidan soliq maslahati jarayonida olingan korxonalar holati to'g'risidagi ma'lumotlarning olingan sanasi, mijoz bilan haqiqiy shartnoma mavjudligi yoki uning yo'qligidan qat'iy nazar, oshkor qilinmasligi; 2) ma'lumotlarning maxfiyligi - soliq bo'yicha maslahat beradigan kompaniya xodimlari tomonidan soliq maslahati jarayonida olingan korxonaning holati to'g'risida, uni olgan sanasi, mijoz bilan haqiqiy shartnoma mavjudligi yoki uning yo'qligidan qat'iy nazar, oshkor qilinmasligi; 3) ma'lumotlardan foyda olish maqsadida foydalanmaslik - soliq maslahati jarayonida olingan korxonalar holati to'g'risidagi ma'lumotlardan maslahatchi yoki boshqa shaxslarning foyda olish maqsadida foydalanmasligi; 4) mijozga zarar yetkazish maqsadida ma'lumotlardan foydalanmaslik - soliq maslahati berish jarayonida olingan korxonalar holati to'g'risidagi ma'lumotlardan mijozga zarar yetkazish maqsadida foydalanmaslik. Soliq maslahatining maxfiyligi prinsipining muhim qismi soliq inspeksiyasi bilan nizolarda, shuningdek, umumiy masalalar bo'yicha ham, innovatsiyalarni joriy etish va boshqarish masalalari bo'yicha boshqa davlat organlari va jismoniy shaxslar yoki korxonalar bilan sud muhokamalarida mijozning manfaatlarini ifodalashda namoyon bo'ladi. Bunday vaziyatlarda mijozning manfaatlarini ifodalash va himoya qilish faqat soliq maslahatchilarining kasbiy etikasi standartlariga bevosita bog'liq bo'lgan qonuniy asoslar mavjud bo'lgandagina amalga oshirilishi kerak [6,B.87-96].

Shu jumladan xorijlik tadqiqotchi olim L.A.Mazurinaning qayd etishicha, "Soliq maslahati strategiyasi tadbirkorlik faoliyatining samaradorligini oshirish uchun budjetga soliq tushumlari va soliq to'lovchilar manfaatlarini shakllantirish nuqtayi nazaridan davlatning iqtisodiy manfaatlarini uyg'unlashtirishga qaratilgan bo'lishi lozim bo'lib, soliq maslahati xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha bozorni o'z manfaatlarining himoyachisi sifatida, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning alohida subyekti deb qabul qilish kerak".

Shu jumladan, soliq maslahati strategiyasiga muvofiq, soliq xizmatlarini asosiy vazifasi raqobat muhitida xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun qonun oldida teng biznes sharoitlarini yaratishdan iborat bo'lgan ichki bozor mexanizmi sifatida ko'rib chiqish kerak [7].

Birinchisi - qonuniylik prinsipi. Soliq maslahati soliq, fuqarolik va mehnat munosabatlari, shuningdek moliya sohasidagi qonun hujjatlarini bilishga asoslanadi. Qonuniylik prinsipi soliq maslahatchisi tashkilot rahbarlari va mutaxassislariga muammoning mohiyati va uni hal qilish yo'llari to'g'risida yangi nuqtayi nazarni ishlab chiqishda qonun hujjatlarini hisobga olgan holda yordam berishi kerakligini anglatadi. Ya'ni soliq maslahatchisi qonunchilikni buzishga turtki bo'lmasligi lozim[8].

Ikkinchisi - professionallik prinsipi. Soliq maslahati ushbu faoliyat bo'yicha tegishli tayyorgarlik, tajriba va malakaga ega bo'lgan shaxslar tomonidan tegishli kasbiy mahorat bilan amalga oshirilishi kerak. Professionallik prinsipi birinchi navbatda kasbning yuqori obro'sini saqlab qolishni anglatadi. Soliq maslahatchisi nostandart muammolarni hal qilishda tashkilot rahbarlari va mutaxassislariga o'zlarida mavjud bilim va tajribadan foydalangan holda yordam berishi kerak. Olingan tajribani to'plash, tahlil qilish, qayta ishlash va undan foydalanish uchun maslahatchi ko'plab tashkilotlar bilan ishlashi va soliq sohasida ham, tegishli sohalarda ham o'z malakasini doimiy ravishda oshirib borishi kerak [8].

Uchinchisi - obyektivlik prinsipi. Soliq maslahatchisi o'z takliflarining obyektivligini asoslashi kerak. Ideal holda, soliq maslahatchisining fikriga hech qanday noto'g'ri qarashlar, ehtiros, manfaatlar to'qnashuvi, boshqa shaxslar yoki holatlar ta'sir qilmasligi kerak. Obyektivlikning axloqiy talabi turli vaziyatlarda yuzaga kelib, bunda soliq maslahatchisining bildiradigan fikri, mulohazasi va tavsiyalarining obyektivligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan bosim o'tkazilishi mumkin.

Xolis va obyektiv maslahat berish uchun turli mijozlarga xizmat ko'rsatishda foydalanilishi mumkin bo'lgan muayyan muammolarni hal qilishning yagona usullarini va shaxsiy standartlarni ishlab chiqish yordam beradi.

To'rtinchisi - vijdonlilik prinsipi. Soliq maslahatchisining vijdonliliigi xizmatlarni taqdim etishning to'liqligi va sifatini, uning kasbiy mahoratini va manfaatlar to'qnashuvini hisobga olishni o'z ichiga oladi. Soliq maslahatchisining vijdonliliigi mijozning muammosini ko'rib chiqish va ishlab chiqishning to'liqligi, mumkin bo'lgan yechimlarni tahlil qilishning to'liqligi va yakuniy yechimni (maslahatni) tanlashda yordamning to'liqligi bilan belgilanadi.

Beshinchisi - mustaqillik prinsipi. Bir tomondan, qonun chiqaruvchilar va ijro etuvchi hokimiyatning davlat organlaridan soliq maslahatchisi ishining obyektivligi, boshqa tomondan, maslahat beriluvchi mijozdan mustaqillik talab qilinadi. Soliq maslahatchisi tashkilotda mavjud bo'lgan an'analar va yozilmagan qonunlardan mustaqil bo'lishi, shu bilan birga tashkilot madaniyatiga moslashgan holda, o'ziga xosligini saqlab qolishi kerak. Mustaqillik maqomi shuni anglatadiki, na hokimiyat, na mijoz soliq maslahatchisiga u yoki bu masalani qanday hal qilish kerakligini aytmaydi. Soliq maslahatchisining fikri erkin va obyektiv bo'lishi va faqatgina ishonchli ma'lumotlarga asoslangan bo'lishi kerak.

Oltinchisi - maxfiylik prinsipi. Soliq maslahatchisi tomonidan mijozlardan olingan tijorat sirlari va boshqa shaxsiy ma'lumotlarni sir tutilishi lozim. Garchi iqtisodiy subyekt to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilish yoki tarqatish soliq maslahatchisining fikriga ko'ra unga moddiy yoki boshqa zarar yetkazmasa ham, soliq maslahatchisi maxfiylik prinsipiga qat'iy amal qilishi kerak. Soliq maslahatchisi o'z mijozlarining muammolarini hal qilish haqida gapirganda, maxfiylik prinsipini yodda tutishi kerak. Ya'ni, u oldingi ishlar, xizmatlar, muammolar, ularning paydo bo'lish sabablari, hal qilinadigan vazifalar, qiyinchiliklar, samaradorlik va boshqalar haqida ismlar, nomlar va to'g'ridan-to'g'ri o'xshashliklarsiz ma'lumot berishi kerak [9,B.160].

Soliq maslahati prinsiplari postulatlariga (lotincha "postulatum" dan), ya'ni dastlabki qoidalar sifatida dalilsiz qabul qilingan bayonotlarga asoslangan bo'lishi kerak. Ushbu qoidalar boshqacha ekanligi isbotlanmaguncha, ya'ni rad etilgunga qadar haqiqiy deb hisoblanadi. Soliq maslahati postulatlarini-bu faoliyat yo'nalishini belgilaydigan soliq maslahati standartlari (qoidalari) mazmunini tushunishga yordam beradigan nazariyaning aksiomatik qoidalaridir. Ularning soliq maslahati nuqtayi nazaridan roli juda katta.

L.A.Mazurining qayd etishicha, g'arb olimlarining nuqtayi nazarlarini har tomonlama o'rganib chiqib, quyidagi fikrlarni ilmiy asoslangan va to'g'ri deb hisoblaymiz:

Mijoz manfaatlarining ustuvorligi. Mijoz manfaatlarining ustuvorligiga rioya qilish soliq maslahatchisi mijozlarning manfaatlarini o'z manfaatlaridan ustun qo'yishini va ularga halol, mustaqil, malakali xizmat ko'rsatishini anglatadi. Mijozning vazifalari korxonaning umumiy ustuvorliklari, maqsadlari va strategik prinsiplari doirasida mavjud bo'lganligi sababli, mijozga bo'lgan qiziqish soliq maslahatchisini vazifalarni butun tashkilot manfaatlarini nuqtayi nazaridan ko'rib chiqishga undaydi. Shu bilan birga, qonunchilik doirasidan tashqariga chiqmagan holda biznesning qulay yashashiga imkon beruvchi barcha turdagi qonunchilik imtiyozlari va preferensiyalaridan maksimal darajada foydalanishga asoslangan amaldagi soliqqa tortish tizimi bilan raqobatbardosh ustunlikka erishishga qaratilgan ishbilarmonlik muhiti manfaatlarini muvofiqlashtirish zarur.

Mijoz bilan munosabatlarning ishonchliliigi. Ishonchni o'rnatish bu umidlarni oqlash va saqlab qolish uchun juda muhim bo'lgan jarayon. Ma'lum bir soliq maslahatchisiga, uning malakasiga, halolligiga, mustaqilligiga bo'lgan shaxsiy ishonch darajasini va umuman soliq maslahatiga bo'lgan tashkilotiga bo'lgan tashkilotning ishonch darajasini ajratish mumkin.

Manfaatlar to'qnashuvini hisobga olish. Soliq maslahatchisi obyektivlik va xolislikdan foydalangan holda manfaatlar to'qnashuvining ehtimolini istisno qilishi va mijozga vijdonan yordam ko'rsatishi kerak. Bir tomondan, davlat soliqlarni iloji boricha ko'proq olishdan manfaatdor bo'lib, ijro etuvchi hokimiyat organlari, ya'ni soliq xizmati va uning tarkibiy bo'linmalari orqali soliqlarni hisoblashning to'liqligi va o'z vaqtida to'lanishini nazorat qiladi. Boshqa tomondan, soliq to'lovchilar soliqlarni to'liq to'lashdan manfaatdor emaslar va soliqlarni optimallashtirish yo'llarini izlaydilar [8].

D.G.Chernik, L.S.Kirina va V.V.Balakinlarning fikrlariga binoan, soliq maslahatchisining mijozlari soliq to'lovchilardir. Shuning uchun ham soliq bo'yicha maslahat xizmatlarini ko'rsatishda ushbu manfaatlar to'qnashuvini hisobga olish kerak. Bunday mojaro yuzaga kelganda, uni imkon qadar tezroq hal qilishga harakat qilish lozim.

Professional korporativ xatti-harakatlar. Kasbning obro'sini saqlab qolish, kasbning axloqiy me'yorlariga rioya qilish, o'zaro hurmat va professional hamjamiyat doirasida hamkorlik qilishi lozim. Professional hamjamiyatning boshqa vakillari bilan munosabatlar halol va adolatli raqobat prinsiplariga asoslanishi kerak. Soliq maslahati bozorida boshqa soliq maslahatchilari, yuridik va jismoniy shaxslarga nisbatan adolatsiz raqobat usullaridan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Professional hamjamiyatda hamkorlik va adolatli raqobat prinsiplariga rioya qilish odatda kasb imidjini yaxshilashga qaratilgan qoidalar, normalar va standartlarni ishlab chiquvchi professional uyushmalar tomonidan nazorat qilinadi. Mamlakatimizda ushbu vazifani professional etika normalarini ishlab chiqqan soliq maslahatchilari palatasi bajaradi. Maslahatchilar mijozning ko'rib chiqilayotgan muammolari bo'yicha o'zlarining malakalariga ishonch hosil qilishlari va yuzaga keladigan barcha vaziyatlarni obyektiv va xolis ko'rib chiqishga intilishlari kerak.

Kasbning axloqiy me'yorlariga rioya qilish. Kasbiy etika prinsiplari soliq maslahatchilari palatasining a'zolari, davlat hokimiyati organlari, mijozlar, sheriklar, ommaviy axborot vositalari o'rtasidagi munosabatlarning axloqiy asoslari hisoblanadi[10,B.439].

Axloqiy me'yorlar qonunchilik darajasida mustahkamlanmagan va faqat tavsiyaviy xarakterga egadir. Ular jamiyatda kasb imidjini oshirishga qaratilgan va soliq maslahatchilari istiqbolli va amaldagi mijozlar, hamkasblar, davlat organlari va umuman jamiyat bilan o'zaro munosabatlarni o'rnatganda rioya qilishlari kerak bo'lgan kasbiy xulq-atvor standartlarini o'z ichiga oladi.

Yana bir tadqiqotchi olim N.N.Bashkirovaning fikriga ko'ra, soliq maslahatchilarining kasbiy etikasi normalari va standartlarini ishlab chiqishdan maqsad soliq maslahati sohasida professional xizmatlarning yuqori sifatini ta'minlash, shuningdek, kasb vakillariga jamoatchilik ishonchini shakllantirishdir. Kasbiy etika prinsiplari soliq maslahatchilari palatasining a'zolari, davlat hokimiyati organlari, mijozlar, sheriklar, ommaviy axborot vositalari o'rtasidagi munosabatlarning axloqiy asoslari hisoblanadi[11,B.175].

Mas'uliyat. Professional xizmatlarni ko'rsatishda soliq maslahatchisi ko'rsatilgan xizmatlarning sifati uchun shaxsan javobgardir[12,B.12-14]. Asosiy konseptual qoidalarning asosliliigi va ularni amalga oshirish mexanizmi soliq maslahatchilari ishining samaradorligi va sifati bilan bevosita va chambarchas bog'liqdir.

Muallifning strategiyani shakllantirish bo'yicha takliflari tadbirkorlik faoliyatining bir turi sifatida soliq maslahatini shakllantirish va tadqiq qilish jarayonining faqat boshlanishidir. Demak, bu vazifa yaqin kelajakda juda dolzarb bo'lib ko'rinadi.

Soliq to'lovchi uchun soliq organlari bilan o'zaro aloqada bo'lish istagini yo'qotmaydigan sharoitlarni yaratishi kerak.

Bizning fikrimizcha, ushbu shartlar, unga do'stona munosabatda bo'lish, ma'lumot va maslahat berishga asoslangan bo'lishi kerak. Shuningdek, soliq bo'yicha maslahat xizmatlarini ko'rsatishning quyidagi prinsiplarini ajratib ko'rsatish mumkin: qonuniylik; professionallik; mustaqillik. Qonuniylik prinsipi soliq maslahatchisining soliq, fuqarolik va mehnat munosabatlari hamda moliya sohasidagi qonunchilik bilimlarini hisobga olgan holda jismoniy va yuridik shaxslarga muammoning mohiyati va uni hal qilish usullari to'g'risidagi yangi nuqtayi nazarni ishlab chiqishda yordam berishi kerakligini anglatadi. Ya'ni, maslahatchi qonun hujjatlariga muvofiq harakat qilishi kerak.

Professionallik prinsipi birinchi navbatda kasbning yuqori obro'sini saqlab qolish, axloqiy me'yorlarga rioya qilishni anglatadi. Mustaqillik prinsipi soliq maslahatchisining qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatning davlat organlaridan va maslahat oluvchi mijozdan mustaqilligini anglatadi. Ushbu prinsipning tarkibiy qismlari moliyaviy mustaqillik, ma'muriy mustaqillik va hissiy mustaqillikdir[13].

Fikrimizcha, soliq maslahatchilarining faoliyati quyidagi prinsiplarga asoslanishi kerak:

- 1) faoliyatning qonuniyligi (maslahat jarayonida huquqlarni tasdiqlash va belgilangan standartlarga rioya qilish);
- 2) professionallik (kvalifikatsiya va malaka oshirish orqali kasbiy maqomini tasdiqlash);
- 3) mustaqillik;
- 4) mijozga sodiqlik;
- 5) kasbiy standartlar va qoidalar talablariga rioya qilish;
- 6) mijoz oldidagi javobgarlik (axloqiy va moliyaviy);
- 7) jamiyat oldidagi javobgarlik (axloqiy, moliyaviy, ma'muriy);
- 8) mijozdan olingan ma'lumotlarning maxfiyligi (kasbiy sir).

Yuqoridagilardan farqli ravishda, tadqiqotchi olim T.A.Demisheva soliq maslahati prinsiplarining quyidagi qonuniylik, professionallik, obyektivlik, maxfiylik, tizimlilik va davomlilik kabi turlarini alohida ajratib ko'rsatadi.

Unga ko'ra: qonuniylik prinsipi – bu soliq maslahatchisi tashkilot rahbarlari va mutaxassislariga muammoning mohiyatiga yangi nuqtayi nazarni ishlab chiqishda, amaldagi qonunchilikni hisobga olgan holda, uning buzilishiga yo'l qo'ymasdan yordam berishi kerakligini anglatadi.

Professionallik prinsipi. Soliq bo'yicha maslahatlar tegishli tayyorgarlik, tajriba va malakaga ega bo'lgan hamda kasbning yuksak obro'sini saqlashga intilgan shaxslar tomonidan malakali tarzda berilishi kerak.

Obyektivlik prinsipi. Soliq maslahatchisi o'z takliflarini xolisona asoslashi kerak.

Maxfiylik prinsipi. Mijozlardan olingan tijorat sirlari va boshqa shaxsiy ma'lumotlar soliq maslahatchisi tomonidan qat'iy sir saqlanishi kerak.

Tizimlilik prinsipi. Ushbu prinsip strategik yo'nalishlar (bosqichlar) ketma-ketligini nazarda tutadi va strategik yo'nalishlar hamda tegishli vazifalarni amalga oshirish bilan ta'minlanadi.

Davomiylik prinsipi. Bu hal qiluvchi prinsip bo'lib, soliq maslahati sohasidagi ilmiy va nazariy tadqiqotlarga, uni eng rivojlangan mamlakatlarda amalga oshirish amaliyotiga asoslanadi [14].

### Iqtiboslar/Сноски/References:

1. European Professional Affairs Handbook for Tax Advisers Second edition 2013 by the CFE Professional Affairs Committee edited by Rudolf Reibel © 2013 Confédération Fiscale Européenne (CFE) Avenue de Tervuren 188 A B-1150 Brussels;
2. М. П. Селезнёва, А. С. Кочеткова Проблемы и перспективы развития института налогового консультирования в России // Международный журнал гуманитарных и естественных наук. 2019. №11-3; (M. P. Selezneva, A. S. Kochetkova Problems and prospects for the development of the institute of tax consulting in Russia // International Journal of Humanities and Natural Sciences. 2019. No. 11-3);
3. Артеменко Д.А., Артеменко Г.А. Формирование и оценка транзакционных издержек налогового администрирования // Journal of Economic Regulation. – 2013. – Т. 4. – № 3. – С. 113-120; (Artemenko D.A., Artemenko G.A. Formation and assessment of transaction costs of tax administration // Journal of Economic Regulation. – 2013. – Т. 4. – No. 3. – P. 113-120);
4. Демишева Т.А. Организация и методика налогового консультирования. – М.: МЦФЭР, 2004. –С. 12. (Demisheva T.A. Organization and methodology of tax consulting. – М.: MCFR, 2004. –P. 12.);
5. Гудков Ф.А. Об организации рынка услуг по налоговому консультированию//Ваш налоговый адвокат. – 2007. - № 7. –с. 12-14. (Gudkov F.A. On the organization of the market for tax consulting services//Your tax lawyer. – 2007. - No. 7. – p. 12-14.)
6. Timoshkova N.V. (2016) State regulation of small and medium-sized enterprises - Public administration and economics: current state and development prospects: materials of the international scientific and practical conference - under total. ed. S. B. Murashova. - SPb .:

- North-West Institute for Advanced Studies of the Federal Tax Service of Russia,- 280 p. - pp. 87-96 (In Russ.).
7. Мазурина Л. А. Стратегия налогового консультирования // Актуальные вопросы экономических наук. 2011. №23. (Mazurina L.A. Tax consulting strategy // Current issues of economic sciences. 2011. No. 23.)
  8. Мазурина Л.А. Принципы профессионального оказания услуг по налоговому консультированию [Электронный ресурс]. (Mazurina L.A. Principles of professional provision of tax consulting services [Electronic resource].)
  9. Демишева Т.А. Организация и методика налогового консультирования. – М.: Учебный центр МФЦ, 2007. – 160 с. (Demisheva T.A. Organization and methodology of tax consulting. – М.: MFC Training Center, 2007. – 160 p.)
  10. Черник Д.Г., Кирина Л.С., Балакин В.В. Налоговое консультирование. – М.: Экономика, 2009. – 439 с. (Chernik D.G., Kirina L.S., Balakin V.V. Tax consulting. – М.: Economics, 2009. – 439 p.)
  11. Башкирова Н.Н. Основы налогового консультирования: учебное пособие. – М.: Магистр, 2008. – 175 с. (Bashkirova N.N. Fundamentals of tax consulting: textbook. – М.: Master, 2008. – 175 p.)
  12. Гудков Ф.А. Об организации рынка услуг по налоговому консультированию // Ваш налоговый адвокат. – 2007. – № 7. – С. 12-14. (Gudkov F.A. On the organization of the market for tax consulting services // Your tax lawyer. – 2007. – No. 7. – P. 12-14.)
  13. Лыскова Н.А. Перспективы развития налогового консультирования в Российской Федерации // Экономика и управление: анализ тенденций и перспектив развития. 2014. №15. (Lyskova N.A. Prospects for the development of tax consulting in the Russian Federation // Economics and management: analysis of trends and development prospects. 2014. No. 15.)
  14. Т.А.Демишева, «Организация и методика налогового консультирования»// - М.: Учебный центр МФЦ, 2007. (T.A.Demisheva, “Organization and methodology of tax consulting” // - М.: MFC Training Center, 2007.)



ISSN 2181-9130

Doi Journal 10.26739/2181-9130

# ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

3-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ  
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-3

JOURNAL OF LAW RESEARCH  
SPECIAL ISSUE-3

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000